

ARAB BADIYATSHUNOSLIGIDA ISTIORA VA MAJOZ SAN'ATI

Hadis ilmi maktabi o'qituvchisi:

Xursanmurodov Tolibboy Shukrullo o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab adabiyotida muhim sanalgan bayon ilmi va unga tegishli bo'lgan majoz, isteora tashbeh kabi atamalar keng o'rganilgan. Zero bu ilmlarni bilgan kishi arab tili sir asrorlarini tushunishligi oson bo'lishi, maqsadga tezroq yetishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Bayon, isteora, majoz, tashbeh, mushabbah, mufrad majoz, haqiqat, wajhu shibh.

Annotation: This article extensively studies the science of metaphor, which is considered important in Arabic literature, and related terms such as metaphor, allegory, and simile. It is emphasized that a person who knows these sciences will find it easier to understand the secrets of the Arabic language and reach their goals faster.

Keywords: Explanation, allegory, metaphor, simile, tashbeh, mushabbah, mufrad metaphor, truth, wajhu shibh.

Аннотация: В этой статье подробно изучается наука метафоры, которая считается важной в арабской литературе, и связанные с ней термины, такие как метафора, аллегория и сравнение. Подчеркивается, что человеку, знающему эти науки, будет легче понять секреты арабского языка и быстрее достичь своих целей.

Ключевые слова: Объяснение, аллегория, метафора, сравнение, ташбе, мушабба, метафора муфрад, истина, ваджху шибх.

Arab badiyatshunsligini olimlari davr o'tishi bilan bu fanni rivojlantirib borganlar. Buning fannig tarixi uzoq arab johilyati davridan to ushbu kunimizacha takomillashib kelayotgani va hozirda ham o'rganilayotgan ekanligini olimlar e'tirof etishadi. Bayon ilmining asosini tashkil etuvchi qismlari bo'lgan tashbeh, majoz va kinoya bilan isteora san'ati uzviy bog'liq. Ulamolarning ko'plari isteorani majozning bir bo'lagi sifatida takidlashgan va isteorani bir necha qismlarga bo'lib o'rganishgan. Badiyatshunoslikda isteoraning alohida o'rni borligi sababli ham Abu Lays as-Samarqandiy kichik hajmda bo'lsada, bu to'g'risida alohida risola yozgan.

Istiora haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun avval tashbeh¹ haqida qisqacha ma'lumot berilishi kerak. Chunki, tashbehdan majoz va kinoya mavzulari kelib chiqsa, isteora majozning bir qismi hisoblanadi.

¹ So'zni majoziy (ko'chma ma'noda) yoki kinoya sifatida qo'llashga arab tilida tashbeh atamasi ishlatiladi.

Tashbeh soʻzi lugʻatda oʻxshatish maʼnosini anglatadi. U bir narsani u bilan mushtarak sifatga ega boʻlgan boshqa narsaga oʻxshatishdir. Bunda oʻxshatilayotgan soʻz “*mushabbah*”, qiyoslanayotgan soʻz “*mushabbah bihi*” deyilsa, oʻxshatish obektini “*vajhu shibh*” (yoki “*vajhu shabah*”) deyiladi. Shuningdek, tashbehda va boshqa yuklamalar oʻxshatish uchun vosita hisoblanadi. Ayrim adabiyotlarda bu “*vositai tashbeh*” deb ataladi². Masalan:

العام كالنور في الهداية³

“Ilm hidoyatda nur kabidir” iborasiga oʻxshash. Bu oʻrinda “ilm” soʻzi “nur”ga oʻxshatilmoqda. Shuning uchun mushabbah, “nur” soʻzi esa mushabbah bihi, oʻxshatish vositasi boʻlgan “hidoyat” soʻzi vajhu shibh boʻlmoqda.

Maʼlumki, barcha lafzlar ikki navga boʻlinadi:

1) Turli gap va turli shakllar da ishlatilganda maʼnosi sarflanmaydigan, yaʼni oʻzgarmasdan bir maʼnoda ishlatiladigan soʻzlar.

2) Turli maʼnolarda ishlatiladigan lafzlar, yaʼni shakldosh soʻzlar.

Agar ishlatilishda lafz maʼnosi oʻzgarmasa, turli gaplarda turlicha maʼno kasb etmasa, u haqiqat, yaʼni haqiqiy lafz deyiladi. Haqiqat lafzning ishlatish oʻrniga eʼtiboran nisbatda yoki oʻzagida boʻladi. Masalan, feʼl oʻzining bajaruvchisi bilan, feʼl oʻzining toʻldiruvchisi bilan, moslashgan aniqlovchi oʻzining aniqlanmishi bilan, zarflar, yaʼni zamon va makonga dalolat qiluvchi soʻzlar va boshqa oʻziga mos keladigan gap boʻlagi bilan bogʻlanib kelishi haqiqiy isnod hisoblanadi.

Haqiqat lafanning zotida, yaʼni soʻz oʻzining haqiqiy maʼnosi va vazifasida ishlatilishi haqiqatdir. Agar soʻzning haqiqati isnodida⁴ boʻlsa, uni haqiqiy aqliy deyiladi. Masalan (الإنضاج) pishirmoq, yetiltirmoq soʻzining isnodini Allohga bogʻlab haqiqiy isnodni ushbu misolda koʻrish mumkin:

انضج الله الثمر Yaʼni, Alloh mevani pishirdi, yetiltirdi. Chunki, mevani haqiqatda ham Alloh pishiradi, bu ish Allohning izmi ixtiyorida ekani maʼlum. Demak, feʼlning bajaruvchisi, yaʼni pishiruvchi va yetiltiruvchi etib Alloh lafzi olingani haqiqiy boʻldi. Aqliy isnod deyilishining sababi, asosan, kimga, nimaga va qanday suyanishi va boshqa tomonlari aql bilan idrok etiladi. Shuning uchun ham, bunday isnodlarni haqiqiy aqliy deyiladi.

Soʻz oʻzining haqiqiy maʼnosida ishlatilgan oʻrinlar ikkita boʻlishi maʼlum boʻldi. Majoziy maʼnoda ishlatilganda esa, bu holatda ham ikki ustun, yaʼni soʻzning aslida boʻladigan majoz va isnodda boʻladigan majoz turiga boʻlinadi.

Soʻz qoʻllanishi davomida oʻzining asl, yaʼni tilshunoslikda birinchi ishlatilgan va haqiqiy maʼnosidan boshqa maʼnoda qoʻllansa, uni majoz deyiladi.

² Курбонов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Мовороуннахр нашриёти, 2010. – Б. 43.

³ حقني ناصف، محمد دياب، مصطفى تموم، محمد صالح. الدروس النحوية. الكتاب الثاني. الكويت: دار الإيلاف الدوفالية، 2006. – ص. 182.

⁴ Isnod tushunchasi arab grammatikasi atamalaridan hisoblanib sintaktik bogʻlanish, dalolat qilishni bildiradi.

Majoz “o‘tib ketish” ma’nosida bo‘lib, so‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilganini bildiradi⁵.

So‘zning majozni isnodida bo‘lishi – uni o‘zi haqli bo‘lmagan so‘zga nisbat berilishi bo‘lib, majozni isnodiy, isnodni majoziy yoki aqliy majoz deyiladi. Masalan, – انضاج fe’lini الربيع bahor lafziga mo‘min kishi tomonidan isnod bilan aytilishi:

انضج الربيع الثمر Ya’ni, “Bahor mevani pishirdi, yetiltirdi” deyilsa, aslida pishiruvchi Alloh taolilo ekani ma’lum va mo‘min kishi bu gapni aytgani uchun, bu gap: انضج الله الثمر فى وقت الربيع “Alloh bahor vaqtida mevani yetiltirdi” – degan ma’noni kasb etadi. Bu gapda Alloh lafzi pishirish amalining haqiqiy musnadi, ya’ni fe’lni amalga oshirish sababchisidir. Bahor esa, fe’lni bevosita amalga oshiruvchisi sifatida tasavvur qilib bo‘lmaydigan musnaddir, shuning uchun bu o‘rin majoziy isnod bo‘ladi. Fe’lga o‘xshash boshqa birliklarda ham shunday isnod yuzaga keladi.

So‘z o‘zining asl, ya’ni tilshunoslikda birinchi ishlatilgan va haqiqiy ma’nosidan boshqa ma’noda, faqat bitta so‘zda qo‘llansa, bunday turdagi majozni “mufrad majoz” deyiladi. Gapdagi bir necha so‘zlar asl ma’nosida emas, balki, ko‘ma ma’noda ishlatilsa, bunday majoz turi “murakkab majoz” deyiladi.

Mufrad majozni ta’rifi quyidagicha keltirilgan:

المجاز المفرد هو الكلمة المستعملة فى غير المعنى الذى وضعت له لعلاقة بين المعنى الاول والثانى مع قرينة مانعة من إرادة المعنى الاول⁶

So‘zning birinchi (haqiqiy) va ikkinchi (ko‘chma) ma’nolari o‘rtasida aloqa hamda haqiqiy ma’noni anglashdan qaytaruvchi qarinesi⁷ borligi uchun haqiqiy ma’nosidan boshqa ma’noda ishlatilgan lafz mufrad majozdir.

Mufrad majozga berilgan ta’rif majoz bobining barcha ma’nolarini ochib beradi:

Ta’rifdagi الكلمة المستعملة “ishlatilgan soz” iborasi qayd etilgani sabab gapda hali ishlatilmagan lafzlar chiqib ketadi. Chunki, bunday sozlar haqiqiy yoki majoziy deb sifatlanmaydi;

Boshqa ma’noda ishlatilgan" deb qayd etish bilan gapdagi barcha haqiqiy – o‘z ma’nosida ishlatiladigan lafzlar chiqib ketdi. Faqat ko‘chma ma’noda ishlatiladigan – majoziy so‘zlar qoladi;

"Aloqa" so‘zini qayd etish orqali muloqot va muomaladagi ba’zi xato gaplar tushunilmaydi. Masalan: هذا اسد – “Bu sherdir”, deb toshga ishora qilish xatodir. Chunki, tosh bilan sherning o‘rtasida hech qanday aloqa, bog‘lanish yo‘q;

"Monia", man etuvchi, qaytaruvchi so‘zlari orqali kinoya turkumiga kirgan so‘zlar tushunilmaydi. Chunki kinoya lafzlar haqiqiy ma’noda ham, majoziy ma’noda ham barobar ishlatiladi.

⁵ عبدالقاهر بن عبدالرحمن بن محمد الجرجاني. دلائل الإعجاز. – مدينة: مكتبة الخانجي مطبعة المدني. 2009. – ص. 310

⁶ جلال الدين القزويني. تلخيص مفتاح العلوم. – القاهرة: - طبعة التقديم. 1953، مجلد 2. – ص. 234

⁷ Qarina - so‘zlovchining gapi boshqa ma’noda ekanini bildiradigan dalildir.

Bu o‘rinda علاقة “aloqa” so‘zi gapning haqiqiy va majoziy ma’nolarning bir–biriga mos kelishi yoki maqsad etilgan ma’noga mos kelishi, moslashishi ikki xil bo‘ladi:

- 1) O‘zaro o‘xshashlik – mushobaha bilan;
- 2) Mushobaha bo‘lmagan munosiblik bilan.

Agar ikki ma’no o‘rtasidagi moslik o‘zaro o‘xshashlik bo‘lsa, u *isteora* deyiladi. O‘zaro bog‘lanishi tashbehdan boshqa jihat bo‘lsa, u “mursal majoz”, deb ataladi.

Qarina so‘zlovchining gapi boshqa ma’noda ekanini bildiradigan dalildir. Masalan: رأيت اسدا على الفرس – “Ot ustida sherni ko‘rdim” misolidagi “sher” so‘zi jasur kishiga ishlatilgan lafzdir. Jasur kishi bilan “sher” so‘zini o‘zaro o‘xshashlik bog‘lab turgani ko‘rinib turibdi. Chunki jasur kishini “sher”ga tashbeh qilinadi, ya’ni o‘xshatiladi. Shuningdek, “sher” lafzini jasur kishi ma’nosida ishlatiladi. Bu kabi o‘xshatishlar haqida majozning istiora qismida so‘z yuritiladi.

Isteora san’ati haqida olimlar tomonidan o‘z asarlarida turli ta’riflar berilgan bo‘lsada, umumiy ma’no bir xil bo‘lgan. Istioraga “Al-bayon” kitobida shunday ta’rif berilgan:

Istiora bu so‘zning o‘z asl ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chib, so‘zning asl ma’nosiga o‘xshash bo‘lgan ma’noni ifodalashdir⁸.

Istiora bu so‘zni u o‘zining asl ma’nosida kelmayotganiga yorqin dalil mavjud bo‘lgan holatda ushbu so‘zni o‘zga ma’noda, ya’ni u anglatayotgan ma’no va so‘zning asliy ma’nosi o‘rtasida aloqasi mavjudligini anglatib qo‘llashdir⁹.

Isteoraning lug‘aviy ma’nosi الإعارة “iora” biror narsani foydalanib turishga olish, إستعارة deganda, misol uchun birovning libosini kiyib olib, ya’ni u (libos egasi)ning nomi bilan chaqirilishini keltirish mumkin. Zayd Amrning kiyimini kiyib olganidan keyin, uni Zayd emas, Amr deb chaqirganlariga o‘xshatish mumkin. Istilohda isteoraning ta’rifi quyidagicha:

الإستعارة هي الكلمة المستعملة في غير المعنى الذى وضعت له لعلاقة المشبهة مع قرينة مانعة من إرادة المعنى الموضوع له¹⁰

Haqiqiy va ko‘chma ma’nolari orasidagi aloqasi, bog‘liqligi, o‘zaro o‘xshashlik bo‘lgan va o‘zining asliy ma’nosini iroda etishdan to‘sadigan qarinasini bilan o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda ishlatilgan so‘z istiora deyiladi.

غمر – “oy” so‘zi istiora qilingan kalima, غمر “gapirayotgan” so‘zi ta’rifdagi haqiqiy ma’noni tushunishdan qaytaruvchi qarina bo‘lib, oyning o‘z ma’nosi bo‘lgan osmon jismi emas, balki go‘zal, fazilatli kishi ma’nosida ekaniga dalolat qilyapti. Shuning uchun,

⁸ ابراهيم مصطفى دياب. علم البلاغة. – مصر: دار المعارف، 1954. – ص. 42

⁹ Ko‘rsatilgan manba: – B. 43.

¹⁰ حفني ناصف، محمد دياب، مصطفى طاموص. – بيروت: دار انب حزم. 2012. ص. 118

bu gapning ma’nosi “oydek, fazilatli kishining gapirayotganini ko’rdim” bo’lishi mumkin.

Istiora tashbehning ikki tarafi bo’lmish mushabbah hamda mushabbah bihining birini zikr qilib, ikkinchisini nazarda tutish bo’lib, unda mushabbahning mushabbah bihiga o’xshashligi da’vo qilinadi. Bunda mushabbah uchun dalil qilib mushabbah bihiga xos narsa zikr qilinadi.

Masalan, فى الحمام اسد – “hammomda sher bor”, ya’ni shijoatli kishi bor misoli. U shijoatda sherga o’xshaydi. Natijada shijoatli kishiga qarata mushabbah bihiga (ya’ni sherga) xos xususiyatni nisbat berilmoqda. Boshqa misol:

احمد مزن لاسدقائه – “Ahmad o’z do’stlari uchun yomg’irli bulutdir”¹¹. Ahmadning sahiy ekanligi “yomg’irli bulutdir” iborasi orqali ifodalanmoqda.

Demak, bayon ilmini puxta egallagan kishi o’z fikrlarini ifodalashda til vositalarining barchasini mohirona qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu orqali tinglovchi so’zlovchinig fikrlarini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini berish bilan birga uni zeriktirib qo’ymaydi¹².

¹¹ И. Н.Хайбуллин. Стилистика арабского языка. – Москва: Наука, 1999. – С. 55.

¹² Ko’rsatilgan manba. – B. 55.